

KO'P UKLADLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: sultonovxudoyshukur@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining o'ziga xos xususiyatlari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ko'p ukladli iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi yerlari, samaradorli, sug'oriladigan yerlar, yer resurslari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены специфические характеристики орошаемых земель в сельском хозяйстве и вопросы, направленные на повышение эффективности их использования в условиях многоуровневой экономики.

Ключевые слова: многоуровневая экономика, сельское хозяйство, сельскохозяйственные угодья, плодородные, орошаемые земли, земельные ресурсы.

ABSTRACT

this article describes the specific characteristics of irrigated agricultural land and issues aimed at increasing the efficiency of their use in the conditions of a multi-level economy.

Keywords: multi-level economy, agriculture, agricultural land, productive, irrigated land, land resources.

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlashga qaratilgan bir qator qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi hamda ularda bozor iqtisodiyotiga o'tish va uni shakllantirishning o'ziga xos tamoyillari belgilab berildi. Ular asosida, o'z navbatida, mamlakatimiz yer resurslaridan foydalanish tizimini, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida yerdan foydalanish va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish jarayonlarini qayta ko'rib chiqilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, talab va taklif asosida mavjud yerlardan samarali foydalanish va qishloq xo'jaligini

ixtisoslashtirish nafaqat mavjud cheklangan yer resurslaridan eliorati foydalanishni ta'minlashda, balki mahsulot ishlab chiqarishda yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish hamda mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati, aholining turmush elio, tabiiy-iqlim sharoiti, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari hamda talab va taklif muvozanati va o'zaro mutanosibligini ta'minlash kabilarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqarishni ixti-soslashtirish, qishloq xo'jaligida yerdan eliorati foydalanish, xarajatlar sarfini kamaytirish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslari va ularni amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiyotni erkinlashtirishni yanada chuqurlashtirish bosqichida muhim vazifa hisoblanadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi yerlarni toifalar bo'yicha vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Umuman olganda yer resurslaridan foydalanishda ularning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda yondashuv talab etiladi. Avvalambor, yer resurslaridan foydalanish darajasini aniqlashda asosiy e'tibor, birinchidan, yerlardan foydalanish maqsadiga ko'ra ularni qaysi toifaga kirishini aniq belgilab olish, ikkinchidan, amaliyotda qo'llanilayotgan toifalardan kelib chiqqan holda har bir toifadagi yerlarning holati, dinamikasi va foydalanish darajasi tahlilini amalga oshirish va nihoyat, uchinchidan, mavjud muammo, kamchilik hamda nomutanosibliklarni aniqlash zarur.

Albatta, yer resurslaridan foydalanish darajasini bevosita bir-biriga bog'liq holda o'rganish ma'lum darajada ularga kompleks yondashishni taqozo etsada, asosiy e'tiborni alohida yer toifalari bo'yicha amalga oshirishga qara-tish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki yer resurslaridan foydalanish darajasi barcha toifalarda turlicha va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanish ko'rsatkichlari turlichadir. Masalan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish daraja-sini aniqlashda avvalambor, yerlarning tabiiy-iqtisodiy unumdorligidan kelib chiqqan holda asosiy ko'rsatkich hosildorlik hisoblanganda, ular unumdorligining pasayishi, eliorative holatining yomonlashishi bilan bog'liq salbiy holatlari ham e'tiborga olinmog'i lozim. Eng muhimi, barcha foydalaniladigan yerlar uchun ular tabiiy holatining buzilmasligi va mavjud yerlardan maqsadli va samarali foydalanish hisoblanadi.

Tadqiqotimizda ushbu jarayonni mamlakatimizda foydalanish maqsadiga ko'ra yerlarning 8 toifaga bo'linganligi va ularning mavjud holatini tahlil etish orqali foydalanish darajasini aniqlash muhim omil ekanligini ta'kidlagan holda, har bir yer toifasining tasnifini keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi yer fondining foydalanish toifalari bo‘yicha taqsimlanish dinamikasi

1.2.1-jadval

| Yerlardan foydalanish toifalari | 2000 yil | | 2010 yil | | 2020.01.01 yil | |
|--|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| | maydoni, ming ga. | Jamiga nisbatan % | maydoni, ming ga. | Jamiga nisbatan % | maydoni, ming ga. | Jamiga nisbatan % |
| Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar | 33167,8 | 72,7 | 25736,0 | 50,95 | 22259,2 | 50,12 |
| Aholi punktlarining yerlari | 197,2 | 0,4 | 232,7 | 0,52 | 234,9 | 0,53 |
| Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadli yerlar | 1821,2 | 4,0 | 1883,2 | 4,24 | 1965,1 | 4,42 |
| Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar | 13,9 | | 75,3 | 0,17 | 72,2 | 0,16 |
| Reaksiya maqsadiga mo‘ljallangan yerlar | | | | | 0,4 | - |
| O‘rmon fondi yerlari | 2507,5 | 5,5 | 8073,2 | 18,18 | 8661,1 | 19,50 |
| Suv fondi yerlari | 618,8 | 1,4 | 813,8 | 1,83 | 813,6 | 1,83 |
| Zaxira yerlar | 7258,6 | 15,9 | 7596,1 | 17,10 | 10403,8 | 23,43 |
| Jami foydalaniladigan yerlar | 45585,0 | 100,0 | 44410,3 | 100,0 | 44410,3 | 100,0 |

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, har bir hududda yer fondi va uning toifalari bo‘yicha taqsimlanishi turlicha bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va suv fondi hamda zaxira yerlarining ulushi yuqoridir. Qishloq xo‘jaligi yerlariga alohida e’tibor qaratilgan holda, ularni yuqori sifatli yerlar fondiga kiritiladi va oqilona foydalanishni hamda muhofaza qilishni talab etadi. Shuning bilan birga ulardan foydalanish yuki ko‘p qirrali hisoblanadi. Bu yerlarning ushbu toifasi ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida, nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ta’minlaydi, balki agrolandshaftni tashkil qilgan holda, qulay tabiiy muhitni tashkil etishda ham ekologik vazifalarini amalga oshirishi bilan bog‘liqdir. Mamlakatimiz bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlarining taqsimlanishi tabiiy omillar ta’sirida aniqlanadi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullangan qishloq xo‘jaligi korxonalar, tashkilotlari, muassasalari va tomorqa xo‘jaliklarining umumiy yer maydoni 2018 yil 1 yanvar holatiga 20261,6 ming gektarni, shundan qishloq xo‘jaligi yer turlari maydoni 15543,7 ming gektarni yoki 76,7% ni, shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar 3702,4 ming gektarni yoki 18,3% ni tashkil etmoqda.

Mustaqillik yillarida yer resurs-laridan foydalanish tizimida, ayniqsa agrosanoat majmui sohalaridagi olib borilgan islohotlar davomida tarkibiy va institutsional o'zgarishlar keng ko'lamda amalga oshirildi .

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste'mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xomashyo ishlab chiqariladi. Boshqa sohalar kabi qivshloq xo'jaligida ham kishilar o'rtasida iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo'ladi. Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq bo'ladi. Ammo shuni ochiq e'tirof etish lozimki, fan texnika taraqqiyotining rivojlanishi, sanoat, qishloq xo'jaligining ildam o'sishi, aholi sonining tez suratda ko'payishi qator ijtimoiy-iqtisodiy xamda ekologik o'zgarishlarga sababchi bo'lmoqda. Masalan, yerlarning har xil sanoat va maishiy chiqindilar bilan shiddatli tarzda ifloslanishi yoki sug'oriladigan yerlarda ekologik yukning REM (ruxsat etilgan meyyor)dan ortib borishi hozirda real tahdid solmoqda. Birgina, Surxondaryo viloyatida sanoat va maishiy chiqindilarni tashlab atrof muhitni ifloslayotgan 115 ta korxonalar va tashkilotlar aniqlanib, ulardan bir yilda chiqayotgan sanoat va maishiy chiqindilarning miqdori 869,2 ming tonna bo'lib, shundan 401 ming tonnasi maxsus chiqindixonalariga joylashtirilgan xolos. 17 shahar va tuman axlatxonalarini mavjud bo'lib, viloyatning 101,5 gektar maydonlarini band qilib yotibdi. Ularga 1995 yilda 187,6, 1996 yilda 445,5, 2005 yilga kelib esa 600 ming m³ hajmdagi turli xil axlatlar tashlangan. Bu ko'rsatkichlar bugungi kunga kelib yanada ortib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlarni muntazam zararlanishiga olib keladi.

O'zbekistonda noorganik mineral o'g'itlar, gerbitsidlar va pestitsidlarning qo'llanilishi ruxsat etilgan eng yuqori normadan ham o'nlab barobar ortiq edi. Masalan, 1980-1990 yillarda pestitsid va gerbitsidlardan har bir gektarga o'rtacha Yaponiya-0,2-0,4 kg, AQSh-2-4 kg, Sobiq Ittifoq bo'yicha 10-12 kilogrammdan bo'lsa, Sobiq Ittifoqning paxta xom ashyo bazasi hisoblangan O'zbekiston qishloq xo'jaligida ushbu ko'rsatkich o'rtacha bir gektarda 55-59 kilogrammni tashkil etgan. Buning oqibatida tuproq, daryo, ko'l, yer osti va yer usti ichimlik suvlari ifloslandi, tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar, chugalchanglar, kemiruvchilar deyarli qirilib ketdi, o'lim va turli xil kasallik darajalari Sobiq Ittifoq darajasidan ancha yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishning iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. -T.:“Fan”, 2009. – 224 b.
2. Ubaydullaev K. Orolbo‘yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. diss. d.e.n. // T.: 2005.
3. Altiev A.S. Fermerlik – yer resurslaridan foydalanishning samarali shakli // «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» agrar-iqtisodiy. - ilmiy-ommabop jurnali. -T.: 2007. - № 4.
4. Altiev A.S., Aliev G.Q. Yerdan foydalanishda iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitalari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti: “O‘zbekiston tuproqlari va yer resurslari: ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish” ilmiy – amaliy anjumani materiallari. - T.: 2008.
5. Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi. – T.: TDIU, 2009. - 300 b.